

repennet 1003.

AGAR HAYOT BO'STON BO'LSA, BOG'BON MUALLIM!



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
26-sentabr
N:39
(66840)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi



**1-Oktabr -
O'qituvchi va murabbiylar kuni!**

Toshkent
shahridagi
228-maktabning
matematika fani
o'qituvchisi Zamira
Sobirova
Mustaqilligimizning
20 yillik bayrami
arafasida «Xalq
ta'limi a'lochisi»
ko'krak nishoni
sohibasi bo'ldi.
Ko'ksiga nishoni
yarashib turgan
ustozimizni
qutlaymiz!



**«Mustaqillik
madhi
bolalar
ijodida»**

4-bet

OFTOBIMIZ, MOHITOBIMIZ, USTOZLARI!



Maktab! Chinakam hayot maktablardan boshlanadi. Chunki u bizning ko'ngil ko'zimizni ochadigan ikkinchi uyimiz, aziz makon, e'zozli maskanimizdir. Shuning uchun ham biz uni ona bag'ridek issiq makon deya ardoqlaymiz.

Uning kechagi kuni, buguni, ertasi hech birimizni befarq qoldirmaydi.

Zero, kelajagimiz poydevori aynan shu muqaddas dargohlarda yaratiladi. Ya'ni, ertangi kunimiz qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday bilim olishlariga, shuningdek, ularga ta'lim-tarbiya berayotgan ustoz-muallimlarning bilimi, mahorati, tajriba va malakalariga ham bog'liqdir.

Bu esa o'qituvchilik kasbining ardoqli, sharafligi bo'libgina qolmay, nechog'li mas'uliyatli ham ekanligini ko'rsatadi.

O'qituvchi va murabbiylarning kasb bayrami arafasida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Axborot xizmati rahbari Jahongir Musayev bilan yurtimizda «Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umum-milliy dasturi» doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, ta'lim sohasidagi islohotlar xususida suhbatlashdik.

–Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq yurtimizda ta'lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mantiqiy davomi bo'lgan «Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umum-milliy dasturi» doirasida amalga

oshirilayotgan ishlarimiz zamarida farzandlarimizni komil insonlar qilib tarbiyalash orqali yurtimizning buyuk kelajagini barpo etishdek ezgu maqsad yotadi. Shu maqsad yo'lida astoydil mehnat qilayotgan ustoz va murabbiylarimiz mehnatini alohida

e'tirof etish joiz.

Bugungi kunda respublikamizda jami 9779 ta umumta'lim maktablari mavjud bo'lib, ularda 4mln. 577 mingdan ziyod o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda. Xalq ta'limi tizimida 423 mingdan ziyod ustoz va murabbiylar yosh avlodga bilim sirlarini o'rgatib kelmoqdalar.

Taraqqiyotning jadal sur'atlari, jahon ilm-fanidagi olamshumul yangiliklar o'qituvchilarimizning muntazam ravishda o'z bilim, tajriba va malakalarini oshirib borishini taqozo etmoqda. Shuni nazarda tutgan holda umumta'lim maktablari bilan oliy o'quv yurtlari o'rtasida hamkorlik dasturlari tuzildi, «Ustoz – shogird maktabi» tizimi yaratildi.

Ma'lumki, ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagog kasb mahorati, uning bilim va ko'nikmasi muhim omillardan sanaladi. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan pedagoglar malakasiga, oliy toifali mutaxassislar safini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning 300 mingga

yaqini oliy, 7424 nafari tugallanmagan oliy ma'lumotga ega.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalda bo'lgan ta'lim siyosati o'qituvchi va murabbiylar kasbini ulug'lash, ularning obro'-e'tiborini oshirishga qaratilgandir. Bu sa'y-harakatlar o'z so'zini aytmasdan qolmadi. Ko'plab fidoyi, zahmatkash, mehdariyo ustozlarimizning samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan alohida e'tirof etilib, munosib taqdirlandi. O'qituvchilar va murabbiylar bayrami arafasida taqdirlanganlar soni yanada ortishi kutilmoqda.

Barchamizga ilm-u urfon eshiklarini keng ochgan daryodil ustozlarimiz bunday e'zozga, hurmat va ehtiromga loyiqdirlar. Zero, USTOZlar yurtning eng ulug', aziz va mo'tabar kishilari-dandir.

Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha ustoz va murabbiylarimizni ayyamlari bilan chin dildan muborakbod etaman! Ularga mustahkam salomatlik, mashaqqatli ishlariga rivoj tilayman.

Feruza JALILOVA yozib oldi

Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi 9779 ta umumta'lim maktabida 423 ming 574 nafar ustoz va murabbiylar faoliyat ko'rsatadi.

Shulardan 6 nafari «O'zbekiston qahramoni», 104 nafari «El-yurt hurmati» ordeni, 21 nafari «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni, 259 nafari «Mehnat shuhrati» ordeni, 507 nafari «Sog'lom avlod uchun» ordeni, 347 nafari «Do'stlik» ordeni, 1252 nafari «Shuhrat» medali, 9 nafari «Jasorat» medali, 304 nafari «O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi» unvoni, 223 nafari «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi», 25 nafari «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustози» unvoni bilan taqdirlangan.

DILSORAGA OMAD YOR BO'LSIN!



Gazetamizning navbatdagi soni nashrga tayyorlanayotganda, Toshkent viloyati, Pskent tumanidagi 1-umumta'lim maktabi rahbari M.Qurbonovadan maktub keldi. Mazkur bilim dargohining 8-«B» sinfida a'lo baholarga tahsil olayotgan Dilsora Abdusattorova haqida iliq fikrlar bildirilgan maktubda jumladan shunday satrlar bor:

– Maktabimizning eng bilimdon, zukko o'quvchilaridan bo'lgan Dilsora 1-sinfidan 8-sinf gacha a'lo o'qishi, namunali xulqi, jamoat ishlari-dagi faol ishtiroki uchun «Faxriy yorliq» bilan taqdirlanib keladi.

U adabiyot, she'riyat ixlosmandi. Yozgan maqola va hikoyalari ko'plab respublika nashrlarida chop etiladi. «Ezgulik» nomli hikoyalari to'plami bosmadan chiqish arafasida. Shuningdek, maktabda o'tkazilgan «Eng zukko kitobxon», «Bir oyda bir kitob» tanlovlarining eng faol ishtirokchisi va g'olibi bo'ldi.

Bu iqtidorli qizimiz darsdan bo'sh

vaqtlarida badiiy gimnastika, raqs to'garaklariga ham muntazam qatnaydi. Badiiy gimnastika bo'yicha tuman, viloyat musobaqalarida I, II darajali Diplom bilan taqdirlangan bo'lsa, «Yangi avlod – 2010» bolalar ijodiyoti festivalining raqs yo'nalishi bo'yicha respublika bosqichi g'olibi bo'lib, bilim dargohimiz nomini yurtimizga tanitdi.

Maktabimiz faxriga aylangan Dilsora Abdusattorova ayni kunlarda «Yangi avlod – 2011» bolalar ijodiyoti festivalida nazm va nasr yo'nalishi bo'yicha ishtirok etishga qizg'in hozirlik ko'ryapti...

Izlanuvchan, intiluvchan bu tengdoshingizga biz ham omad tilab qolamiz.

TAHRIRIYAT

NURLI MANZILLAR SARI

Maktabimizda ijodkor o'quvchilar juda ko'p. Bunda bilim maskanimizning bu yil Respublika miqyosidagi «Eng yaxshi maktab» tanlovida g'olib bo'lishga hissa qo'shgan ustozlarimizning ham beminnat ulushlari bor. Shuningdek, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari Gulnoza Umirova, Go'zal O'zbekova, «Yangi avlod» respublika bolalar festivali grand sohibi Shahzodbek Ro'zmetov, «Kelajak ovozi» tanlovining respublika bosqichi ishtirokchisi Rasul Matrizayev, «Prezident asarlari bilimdonlari» tanlovi g'oliblari Nargiza Xo'janiyozova va Hayotxon Rahmonova kabi tengdoshlarimiz bilan faxrlanamiz.

Men ham tengdoshlarim kabi ota-onam, ustozlarim ishonchini oqlab, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilayotgan avlodlar safidan o'rin olishga harakat qilyapman. Bu yil «Nurli kelajak» guruhimiz bilan «Kamolot bilimdoni» ko'rik-tanlovida qatnashib, Respublika miqyosida faxrli o'rinlarni egalladik. Ana shunday lahzalarda istiqloq farzandi ekanligimdan, jannatmakon yurtda yashayotganimdan faxrlanaman. Bu faxr esa bizni ezgulikka, nurli manzillarga chorlayveradi.

Oyshaxon RO'ZMETOVA,
Xorazm viloyati,
Urganch shahridagi

5-maktabning 8-sinf o'quvchisi



EULDASTALAR SARASI SIZGA BO'LSIN, MUALLIM!

Aziz o'quvchilar! Yangi o'quv yili boshlanib, barchangiz sevimli o'quv dargohingizga, ustozlaringiz bag'riga qaytingiz. Bu yil o'tgan yildagidan ham yaxshi o'qiymen, ustozlarimni xafa qilmayman, deb o'z oldingizga maqsad ham qo'ygansiz, shundaymi? Barakalla, ustozlarni e'zozlash har birimizning burchimizdir! 1-Okabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni oldidan bir necha tengdoshlaringiz bilan suhbatlashib, ularning ustozlariga atalgan dil so'zlarini yozib oldik. O'qib ko'ring-chi, ehtimol bu so'zlarni siz ham ko'nglingizdan o'tkazib, uni tezroq ustozlaringizga yetkazmoqchi bo'layotgandirsiz...



Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 12-«Mehribonlik uyi» negizidagi umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Otabek Tojiqulov odobnoma fanini juda yoqtirarkan. Bunga asosiy sabab, ustozining dars o'tish usullari ekanligini uning so'zlaridan bilib oldik:



KOMILLIKKA YETAKLAYSIZ...

— Odobnoma darsini hammadan ko'proq men kutsam kerak. Negaki, bu darsdan hamisha biron-bir yangilik olaman. O'qituvchimiz Dilbar opa Suvonovanning har bir so'zlarini qalbinga muhrlab olaman. Ularning aytishlaricha, komillikka ikki yo'l olib borar ekan: biri ilm bo'lsa, ikkinchisi ezigulik hisoblanarkan. Men ham shu ikki yo'ldan borib, albatta, komil inson bo'laman.

— Maktab har bir insonning ta'lim-tarbiya oladigan, hayotiy bilimlarini boyitadigan, do'stlar orttiradigan maskandir, — deydi Xorazm viloyati, Xiva shahridagi 55-ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi Fazilat Rustamova. — Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'yib, birinchi ustoz mehrini his qilishdek hayajonli damlarni eslamaydigan inson oramizda bo'lmasa kerak.



Bizning maktabimizda ham yuksak e'zozga loyiq o'qituvchilar juda ko'p. Jumladan, Abdulla Xudoyberganov, Murod Jumaniyozov, Qadamboy Otajonov, Zaynab Kamolova, Amina Salayeva, Gulruh Avazova, Iroda Xudoynazarova, Quvondiq Abdusattorov, Bahrom Nazarov, Elyor Bobojonov, Munira Masharipova, Ozoda Matjonovalar alohida hurmatga sazovorlar. Ular o'quvchilarning barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlarida bor kuch va bilimlarini ayamaydilar. Bu zahmatlar esa o'z samarasini bermogda. Fan olimpiadalardagi faxrli o'rinlarimiz buning yaqqol isboti bo'lmoqda. Maktab rahbarimiz Ravshan aka Husainov ta'kidlaganlaridek, puxta bilim olib, maktabimiz dovrig'ini ko'tarib, hayotda o'z o'rnimizni topish uchun astoydil harakat qilishga va'da beramiz!



Shahzod Ahmedov boshlang'ich sinfni Toshkent shahridagi 298-maktabda o'qigan. U ustozlarini juda hurmat qiladi. Hozirda otanasining xizmati yuzasidan Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab-gimnaziyaning 5-sinf o'quvchisi.

— Toshkentdagi ustozlarim, do'stlarimni juda sog'inaman, — deydi u biz bilan suhbatda. — Lekin maktabimiz rahbari Ulug'bek Abdurahmonov, ustozlarim Tatyana Abdullaxo'jayeva, Nargiza opa Bahromovanning shirinso'zliklari, mehribonliklari bois sog'inch hissi biroz pasaygandek bo'ladi. Biz ham ularni hurmat qilib, har bir topshiriqlarini bajarishga harakat qilamiz. Bugun sinfdoshlarimiz nomidan ustozlarimni bayramlari bilan qutlab, ular istagandek odobli, aqli o'quvchi bo'lishga harakat qilamiz!

YURTIMIZNI YASHNATAMIZ

Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Azizbek Zokirov ustozlari Xubon opa Xalloyqovaga atalgan dil so'zlarini quyidagicha ifodalaydi:

— Ustoz! Ilk bor maktab dargohiga qadam qo'yganimga, qo'limdan tutdingiz. Harf tanitib, savodimizni chiqardingiz. Siz bir daraxt bo'lsangiz, biz uning mevasimiz. Mehriingizdan suv ichib, dunyoni yashnatamiz. Aslida barcha ustozlarning mehri birdek, ammo birinchi ustozning mehri inson yuragida bir umrga muhrlanib qolarkan. Shu bois ham sizni ko'rganimga, sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning quyidagi satrlari yodimga tushadi:

Qadri bilinadi endi menga goh,
Olis maktabimda o'sha behasham,
Navoiy-ku bizga ustozdir, biroq,
Kimdir o'qitgan-ku Navoiyni ham...
Shunday ulug' zotga harf o'rgatgan kim?
Oddiy muallim-da, oddiy muallim!



Mana, aziz o'quvchilar, tengdoshlaringizning dil so'zlari bilan tanishdingiz. Agar siz ham ustozingizga so'zlardan saralab «guldasta» tayyorlab qo'ygan bo'lsangiz, uni tezda egasiga yetkazing. Bu ustozingiz uchun eng qadri sovg'a bo'lishiga aminmiz!

Gulyuz BAHODIR qizi

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA»

tanlovi yakunlandi



Qadrlı o'quvchilar, xabaringiz bor, Respublika Bolalar kutubxonasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Tong yulduzi» gazetasi bilan hamkorlikda yurtimiz mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika ijodiy ishlar tanlovini e'lon qilgan edi. Nihoyat, tanlov yakunlanib, g'oliblar ham aniqlandi.

Aslida tanlovda ishtirok etgan har bir o'quvchi g'olib. Chunki ularning mehr bilan yozgan ijodiy ishlari maqtovg'a loyiq. Biroq, tanlov o'z nomi bilan tanlov-da! Shunday ekan, albatta, g'oliblar ko'rsatilishi shart.

Tanlov yakuniga bag'ishlangan
tadbirda g'oliblarro'yxati e'lon qilinganda,
tanlovda qatnashgan 18-, 64-, 145-
maktab o'quvchilari tengdoshlari
Ayjamol Karamatdinovaga chin

dildan havas qilishdi. Chunki u oliy o'rin sohibasi bo'ldi. Ayjamol bilan suhbatlashar ekanman, u bo'sh vaqtlarida o'zi qiziqqan fan to'garaklariga qatnashishini, rasm chizish, she'r yozish uning eng sevimli mashg'uloti ekanini aytdi.

Bu tirishqoq qiz hunar o'rganishni ham yodidan chiqarmabdi. Kashtachilik vo'nalishida maktab.

tuman miqyosida o'tkaziladigan tanlovlarda faol ishtirok etgani uchun bi-necha bor «Faxriy yorliq» bilan taqdirlangan. Bundan tashqari, Qoraqal-pog'iston Respublikasi televideniyesi orqali namoyish etiladigan «Bolalar studiyasi» ko'rsatuvidagi «Kitoblar olami» sahifasini olib boradi. Bu sahifa orqali qizaloq yuzlab tengdoshlarini kitobxon qilgan bo'lsa, ajabmas.

– Viloyat, respublika miqyosidagi tanlovlarda muntazam ishtirok etaman, – deydi Ayjamol. – Baʼzan 1-oʻrinni, baʼzida 2-, 3- va 4-oʻrinlarni egallayman. Ayrim tanlovlarda esa oʻrin ham olmayman. Shunda ham aslo xafa boʻlmayman. Doimo oldinga intilib yashashga, yanada koʻproq oʻqishga harakat qilaman.

Sinf rahbarimiz Ziyba

opa Sultonova, informatika fani o'qituvchisi va to'garak rahbari Dilfuza Do'stmurodova, maktabimiz rahbari Jenis Jalolovdan, qo'ying-chi, barcha ustozlarimdan cheksiz minnatdorman. Chunki ular yutuqlarimning asosiy sababchisidirlar.

Yulduz Abdugʻaniyeva tanlovda uchinchi oʻrinni egalladi. U oʻzi tugʻilib oʻsgan Namanganni Oʻzbekistonning iftixori va faxri deb taʼriflar ekan, bugungi kunda u yerda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlaridan zavqlanib soʻzladi. Yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish lozimligini taʼkidladi.

Bu kabi fikrlarni tahririyatimizga kelayotgan deyarli barcha maktublarda o'qishimiz mumkin. Shuningdek, muxlislarimiz milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarimizga, o'zlari tug'ilgan zaminga bo'lgan ulug' va pok tuyg'ularini sira yashirmaydilar. Satrlarga ko'z yugurtirar ekanmiz, o'quvchilar qalbida ona yurtдан va yaqinlaridan faxrlanishi hissi ustuvorligi yaqqol sezilish turadi. Aslida, tanlovni o'tkazishdan maqsad ham shu edi-da.


Feruza SOYIBJON qizi

Oliy o'rin Qorag'ahog'iston Respublikasi, Kegayli tumanidagi 11- maktabning 7-sinf o'quvchisi Ajjamol Karamatdinovaga, 1-o'rin Forish tumanidagi 59-maktab o'quvchisi Shodiyabegim Sharofiyga, 2-o'rin Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 46-maktab o'quvchisi Kumushoy Abdurazzoqovaga, 3-o'rin Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 9-maktab o'quvchisi Abdurahmon Eshonjonov hamda Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi 32-maktab o'quvchisi Yulduz Abdug'aniyevaga nasib etdi.

Maktablar sonining ko'pligi hisobga olinib, rag'batlantiruvchi o'rinlar ham berildi. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidagi 41-maktab o'quvchisi Sherzod Shavkatov, Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 10-maktab o'quvchisi Go'zal Shonazarova, Surxondaryo viloyati, Jargo'rg'on tumanidagi 2-maktab o'quvchisi Kamola Abduxoligova, Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 3-maktab o'quvchisi Zulfizar Xudoyqulova, Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi 98-maktab o'quvchisi Go'zal Yashinova, G'uzor tumanidagi 22-maktab o'quvchisi Sarvinoz Maxmarahimova "Faxriy yortiq" bilan taqdirlandilar.

**«Tong yulduzi» jamoasi
q'oliblarni qutlaydi!**

ZUHRA olgan suratlar



SHE'R YOZISHNI O'YLAGAN BOLA

*So'nggi paytlarda xayoling biroz
parishonroq bo'lib qoldi. Halovatingni
nimadir o'g'irlagandek tuyuladi. O'ylaysan,
o'yaringning poyoniga yetolmaysan...*

Balki erta bahorda shivirlab chiqqan ilk
maysalar halovatingni buzgandir. Yoxud
qishning qoq o'rtasida gullab yuborgan
bodom daraxtiga boqib, hayajonlanyapsan...
Ha, nima bo'lganda ham hayotga befarq
emasliging sezilib turibdi. Borliqning har
bir ne'mati seni hayratlantiradi. Demak,
qalbingda she'r zavqi uyg'ongan. U zavq
ijodini bir kun dunyoga ko'z-ko'z qilsa,
ajabmas!

Mening ham ilk ijodim xuddi shunday boshlangan edi. Maktab hovlisidagi majnuntollar ostida xayol surib, goho qo'ng'iroq chalinganini sezmay qolardim.

Yuragimda ilk muhabbat zavqi
paydo bo'lgan kezlarim hanuz
yodimda... Kishi yaxshi
ko'rganini yer-u ko'kka
ishonmay yasharkan.
Unga negadir bildir-
ging kelmaydi. U sezsa,
go'yo ishqning kuchi
yo'qolib qolgudek, tuni
bilan o'ylayversang,
o'ylayversang, o'yla-
ring poyon topmasa...

Keyin harbiy xizmatga jo'naysan. Olisda yurgan kezlarda qishlog'ingni sog'inasan, sog'inaverasan. Onangning shirin so'zlarini qo'msaysan. Muhabbating yuksalib boradi.

Endi Vatanni sevishni o'rganasan.



Qishlog'ing yonidan sharqirab oqqan ariq suvi boshqa ariq suvlariga sira o'xshamasligini anglaysan. Qalbingni orziqtirgan sog'inchlar qog'ozga rang-barang bo'lib to'kiladi. Balki she'r yoza-yotgandirsan ilk muhabbatingga, onangga yoki ona Vatanga bag'ishlab. Bir-biridan jiddiy mavzular, quruq so'zlarni xushlamaydigan og'ir dard. Aravani quruq olib qocholmaysan, dilingni qat-qatida yashiringan bebaho so'zlar orqali qiyos izlaysan, izlauverasan...

Ancha yengil tortding, demak, yangi she'r dunyoga keldi. Ey, she'r yozishga oshiqqan bola, sen olamni shu qadar sevki, u ijodingda bor bo'y-basti bilan namoyon bo'lsin.

O'shanda yaxshi she'r yozgan bo'lasan...

AXTAMQULI

DIQQAT! DIQQAT!**KITOBSEVAR BOLAJONLAR,
ESHITMADIM DEMANGLAR...****«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?»****TANLOVI YAKUNLANDI!**

«Tong yulduzi» gazetasi hamda «Kamalak» Respublika bolalar tashkiloti hamkorligida an'anaviy «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi e'lon qilinganidan xabaringiz bor. Unga Siz kitobsevar o'g'il-qizlardan juda ko'plab maktublar keldi. Ular orasidan g'oliblarni tanlashga hay'at a'zolari biroz ikkilanib ham qolishdi. Boisi, tanlovning barcha ishtirokchilari maktablarida o'tkazilgan kitobxonlar tanlovi g'oliblari bo'lib, o'qigan kitoblarining ro'yxati ham bir-biridan kam emas edi. Shu jihatlarni inobatga olib, g'oliblikni quyidagi tarzda taqsimlashni lozim topdik.

Mazkur tanlov 1-Oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni arafasida yakunlandi va quyidagi o'quvchilar uning g'olibi deb topildilar:



Birinchi sinf, birinchi ustoz, birinchi qo'ng'iroq... Shu kunlarni eslaganimda, har gal qalbimni hayajon chulg'aydi. Oradan ancha yillar o'tsa ham, xuddi kechagidek yodimda...

1994-yili Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 45-maktab meni o'z bag'riga olgandi. Birinchi ustozim Oydin Isoilova qo'limdan ushlab, birinchi sinfga olib kirdi. U kishining sharofati bilan maktab uzra birinchi qo'ng'iroqni jaranglatib chalish menga nasib qildi. O'shanda davradagi barcha bolalar menga havas bilan qarashgani yodimda.

EZGULIK URUG'I

Shundan keyin har bir darsda, jamoat ishlarida

birinchi bo'lishga intilib yashadim. Ustozim Oydin opa ham mehnatlarini ayamadilar. Hamisha yaxshi o'qishga, ustozimga yaxshi ko'rinishga intildim. Boshlang'ich sinfni tamomlab, Shahrisabz tumanidagi tasviriy amaliy san'at litseyida, Toshkentdagi Benkov nomli rassomchilik kollejida, so'ngra, Kamoliddin Behzod nomli rassomchilik oliygohida o'qidim. Hozirda Respublika bolalarining sevimli jurnali «G'uncha»da badiiy muharrirlik qilyapman. Qo'limga ilk bor rangli qalam tutqazib, rasm chizishni, ranglarni farqlashni o'rgatgan birinchi ustozim Oydin opaning ko'plab shogirdlari hozirda Vatanimiz ravnaqi yo'lida halol mehnat qilishmoqda.

Yurtimizdagi eng qadrlri ayyomlardan biri – ustozlar bayrami arafasida Oydin opa yuragimizga qadagan yaxshilik va ezgulik urug'ining bir nishonasi sifatida bayram tabrigini taqdim etmoqchiman. Umringiz uzun, toleingiz baland bo'lsin, aziz Ustoz!

Sarvar FARMONOV

**JAJJI
MUSAVVIR**

Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 243-maktabning 6-«E» sinfida a'lo baholarga tahsil olayotgan To'lqinjon Mirzapo'latovni shunday atashadi. Boisi, uning

tasviriy san'atga mehri bo'lakcha. Shogirdidagi bu ishtiyoqni o'z vaqtida payqagan sinf rahbari ona tili va adabiyot fani muallimasi Dilfuza Shirinova, rasm chizish bilan jiddiy shug'ullansang, kelgusida mohir musavvir bo'lishing mumkin, deganida, bolakayning qalbida umid uchqunlari uyg'ondi. Borliqqa yanada e'tiborliroq bo'lib, ona Vatan, go'zal tabiat manzaralarini rasm o'qituvchisi Nilufar Yaminovadan o'rganganlari asosida qog'o'zda aks ettira boshladi.

Chizgan rasmlaridan bir nechtasini tahririyatimizga olib kelgan To'lqinjon mehdariyo ustozlarini gazetamiz orqali tabriklashimizni iltimos qildi.

Poytaxtdagi 243-maktabning fidoyi, qadrlri ustozlari, barchangizni shogirdlaringiz nomidan ayyom bilan muborakkob etamiz!



1-o'rin – Dilnoza NOROVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 63-ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 8-«A» sinf o'quvchisi.

2-o'rin – Dilsora ABDUSATTO-ROVA, Toshkent viloyati, Pskent tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi.

2-o'rin – Shodiyabegim SHAROFIY, Jizzax Davlat pedagogika instituti qoshidagi «Sayiljoy» akademik litseyi o'quvchisi.

3-o'rin – Charos Shuhratova, Navoiy viloyati, Nurota shahridagi 18-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi.

3-o'rin – Ayjamol KARAMAT-DINOVA, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegayli tumanidagi 11-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi.

**G'OLIBLARNI
QUTLAYMIZ!**

Tanlov g'oliblarini taqdirlashga bag'ishlangan tadbir 2011-yil 3-oktabr kuni soat 11.00 da «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30 uy.

«Tong yulduzi» gazetasi tahririyati.

Telefonlar:

244-63-08, 244-27-25.

Tadbirda ishtirok etishni xohlagan barcha o'quvchilarni tahririyatimizga taklif etamiz.

MAROQLI UCHRASHUV

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 97-umumta'lim maktabi o'quvchilari yangi o'quv yili bilan birgalikda ajoyib, qiziqarli tadbirlarni ham boshlab yuborishdi.

Kuni kecha xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov va Tursun Ali bilan o'tkazilgan uchrashuv ham juda qiziqarli o'tdi. Shoirilar yangi ijod namunalaridan o'quvchilar ham yod olgan she'r'lardan o'qishdi. Shundan so'ng, ishtirokchilar o'zlarini qiziqitrgan savollar bilan mehmonlarga murojaat qilishdi. «Hayotda armonlaringiz bormi?» deb so'radi o'quvchilardan biri.

– Armoni yo'q odam bechoralar ichida eng bechorasidir, – deb javob berdi Erkin aka. «Yangi she'riy kitoblaringiz chiqdimi?» degan savolga Erkin aka «Tabassum», Tursun Ali aka «Oy yaprog'i» nomli kitoblari chiqqanini aytib, ularga dastxat yozib bolalarga hadya qilishdi. Bolalarda yana shoirilar hayotiga qiziqish kuchaydi. Ijodkorlar savollarga javob berish bilan bir qatorda, mustaqillik davridagi ijobiy o'zgarishlar, yoshlarga yaratilayotgan sharti-sharoitlar, shu zamonni qadriga yetish, yaratilgan imkoniyatlardan foydalanish kerakligi haqida gapirib, o'quvchilarning ajdodlarimizga munosib avlod bo'lib voyaga yetishlariga tilakdosh ekanliklarini ta'kidlashdi.

Muzaffar AHMEDOV

**EHTIROMIM SIZGA,
USTOZI!**

Men bolaligimdan xuddi bobom Ismatillo Toshev singari mohir jurnalist bo'lishni orzu qilardim. Ammo Olmazor politexnika kasb-hunar kollejiga o'qishga kirdim. Lekin bundan sira afsuslanmayman. Aksincha, bir necha yillik tarixga ega mazkur bilim dargohining o'quvchisi bo'lganimdan faxrlanaman. Kattakon kutubxonasi doimo ixtiyorimizda. Darslarimiz bir-biridan qiziqarli. Dastlabki kunlardan a'lo baholar olyapmiz. Yana bir ahamiyatga molik tomoni shundaki, kollejimizda tez-tez tadbirlar o'tkazib turilar ekan. Shu kunlarda barchamiz yaqinlashib kelayotgan 1-Oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tadbir ssenariysini tuzyapmiz.

Uni juda qiziqarli, mazmunli, yodda qolarli tarzda o'tkazish uchun astoydil harakat qilyapmiz. Axir ustozlarimiz mana shunday hurmat va ehtiromga loyiqlar-da.

Fursatdan foydalanib, Dilorom opa Asqarova, Ogila opa Rahimberdiyeva singari mehdariyo ustozlarimizni kasb bayramlari bilan muborakkob etib, ehtiromimiz Sizga, ustozlar, deymiz!

Robiya HAYITOVA,
Olmazor politexnika kasb-hunar kolleji o'quvchisi

Halol odam – hayotga, insonlarning yuziga mag'rur qaraydi, deyishadi. Chunki uning halol mehnatidan el bahramand bo'ladi-da. Shu bois, bunday insonlarni atrofda gilar birdek qadrlaydi, mehr beradi. Tahririyatimiz hay'ati a'zosi, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarida xizmat ko'rsatgan quruvchi, iqtisod fanlari nomzodi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi a'zosi Murtazo Sultonov ana shunday insonlardan biri.



Qadrlil o'quvchilar! Sizning ko'plab do'stlaringiz bor-a. Avvalo, do'stlik hurmatdan tug'ilishini juda yaxshi bilasiz. Do'st so'zi bu chin so'zdir. Shu sababdan ham do'stlikni ulug'lash, uning qadriga yetish darkor.

Bugungi sahifamizda ko'pchilikning do'st-u birodari bo'lgan inson Murtazo Sultonov haqida so'z borar ekan, bu kishiga atab sevimli shoirimiz To'lan Nizomning quyidagi she'ri ham yuksak ehtiromning namunasidir.

OSMON OLSIN SIZDAN KENGLIKNI

– Men hunarmand Saidulton otaning, Hojiniso onaning farzandiman. Ular bizni halol mehnat bilan tarbiyalashdi. Halol ishlash, xalqqa xizmat qilish, qalb pokligini saqlash, odamlarning mushkulini oson qilishga intilish ishiga butun umrni bag'ishlashni aynan ulardan o'rgandim, – deydi Murtazo ota.

Ota-onaning o'gitlari farzandiga bir umrlik saboq bo'ldi, bu o'gitlarga sodiq qolib yashadi va yashamoqda. Bugungi kunda 75 bahorni qarshi olishga shaylanib turgan tinib-tinchimas ustoz hamon xalq xizmatida. Ularning ish tajribalari, ezgu ishlari biz shogirdlarga ibratdir.

27 yil vazir o'rinbosari, shundan 19 yili Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritib, son-sanoqsiz o'quv maskanlari, sport zallari, yotoqxonalar qad rostlashiga, sakkiz yil Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari lavozimida ishlab, ikki mingga yaqin zamonaviy maktab va boshqa ta'lim dargohlarining qurilishiga bosh-qosh bo'ldi.

Bu davrlarda ta'lim sohasi yanada gurkiradi. Shu sababdan ham ustozni ta'lim ishining bog'boni, deb aytishga haqlimiz.

Murtazo Sultonovni ko'pchilik «Sinmagan odam» yoki «Yashash san'atini bilguvchi inson», deya ta'riflashadi. Bu haqiqat. Chindan-da ustozni yashash san'atining sultoni desak oz. Chunki u kishi hayotga hamisha mehr ko'zi bilan qaraydi, boshqalarni ham shunga undaydi. Vaholanki, mehr bor joyda yaxshilar va yaxshiliklar bor. Shunday eziguliklar ila yashayotgan otaxon Mahfuza ayadek fozila onaxon bilan oqil farzandlar, shirin nabira va evaralar davrasida umrguzaronlik qilaypti.

Muhtaram ustoz! Ayni bayram arafasida sizga yana bir bor sog'lik va salomatlik tilayman. Hamisha el xizmatida hormay-tolmay yurishingizni, atrofingizdagilarning mehrini, muhabbatini his qilib yashashingizni tilab qoluvchi shogirdingiz,

Feruza ADILOVA,
O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi

DO'ST

Qay kuni qo'l berishdik rosti,
Shodliklarga to'ldi bu dunyo.
Dil quvondi, ko'ngillar o'sdi,
Ahd-paymon bor qalbimiz aro.

El ichida Siz kabi odam,
Siz misoli bormidir bir zot.
Sizga o'xshash oshno kamdan-kam,
Gar ko'p bo'lsa gullardi hayot.

Osmon olsin Sizdan kenglikni,
Va himmatni o'rgansin quyosh.
Siz barchaga qilgan tenglikni
Yuragida saqlar qari-yosh.

Sizday saxiy erur bu zamin,
Shul sababdan gurkirar bog'lar.
Har so'zingiz berar may ta'min,
Davrangizda yaxshi o'rtoqlar.

Yuzingizda yashnaydi bahor,
Ko'zingizda mehr-u oqibat.
Fe'lingizda ming hotamtoy bor,
Yuragingiz to'la muhabbat.

To'lan NIZOM,
O'zbekiston xalq shoiri

TILAGI

Siz el uchun tug'ilgan inson,
Mehnat bilan topilgan boylik.
O'zingiz xon, o'zingiz sulton,
Ro'zgoringiz obod, chiroylik!

Siz – iqtisod, siz – ma'naviyat,
Ta'lim ishin so'z bog'bonisiz.
Sizda orzu, eng yuksak niyat,
Mard o'zbekning mard o'g'lonisiz.

Toshdan bo'lsin aziz boshingiz,
Sizday Inson o'lmagay hech ham.
Yoningizda yor-yo'ldoshingiz,
Oila tinch, umringiz ko'rkam.

Qo'lni bering, Murtazo Sulton,
Do'stlik qilib yashaylik uzoq.
Bizni doim ardoqlar zamon,
O'rtamizga tushmasin firoq.



QO'SHIQCHI QUSH

Qanotingda bahorni olib,
Sovuq kunlar ortingda qolib,
Bog'larni kez kuyingni chalib,
Sayrayvergil, qo'shiqchi qushim.

Tashrifingdan yashnar bu olam,
Ovozingdan ko'nglim shod, xurram,
Chug'urlashing yoqimli biram,
Sayrayvergil, qo'shiqchi qushim.

Ezgulikning elchisi o'zing,
Gul bahorning jarchisi o'zing,
Qushlar ichra kuychisi o'zing,
Sayrayvergil, qo'shiqchi qushim.

Mayli, yurtning tuprog'ini o'p,
In qurish-chun mehnat qilsang ko'p.
Rohatin ko'r, quvna uchgin xo'p,
Sayrayvergil, qo'shiqchi qushim.

Silab qo'yay mayin qanoting,
Yaxshilikdir boring, bisoting,
Yangrayversin mangu bayoting,
Kuylayvergin, qo'shiqchi qushim.

Saida BERDIYEVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumanidagi 36-maktabning til va
adabiyot fani o'qituvchisi

DAVRALARING TO'RI SIZNIKI

Qutlug'dir har qadamingiz, ustozlar!
Metin bardosh, chidamingiz, ustozlar!
Xushvaqt o'tsin har damingiz, ustozlar!
Omad bo'lsin hamdamingiz, ustozlar!

Aflotunga ta'lim bergan ham USTOZ!
Beruniyga bilim bergan ham USTOZ!
Buyuk Temur pir deb etagin tutib,
Saboq istab ta'zim qilgan ham USTOZ!

Tunlarni yoritgan yorqin chiroqsiz
Bizlar uchun misli yalov, bayroqsiz.
Shogirdlarga nurli manzillar tomon,
Yo'lni ko'satuvchi yorqin mayoqsiz.

Kasb-u hunarlarning ming xil turi bor,
Har kasbning mashaqqat, ham huzuri bor.
Chin dildan bizlarga saboq berasiz,
Yuzingizda yorqin oftob nuri bor.

Ustoz, ta'zim sizday buyuk insonga
O'xshaysiz ko'kdagi yorqin Cho'lponga.
Deganlarki: «Ustoz ko'rmagan shogird –
Yo'lin topmay yo'rg'alar har maqomga».

Sarf etib kuch-g'ayrat ko'zlar nurini
Kasbingizga to'kkansiz qalb qo'rini.
Qo'llarimiz ko'ksimizda, ta'zimda –
Egallangiz davralarning to'rini.

Muborak bu ayyomingiz, ustozlar!
Qutlug' bo'lsin bayramingiz, ustozlar!

Eshniyoz BURHONOV,
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi
tumanidagi 34-maktab o'qituvchisi



BOG'CHADA

Hovlida o'ynab-kulib,
Yayrab yurgan bolalar.
Yurtimning bog'idagi,
Rayhon kabi muattar.

O'zbekim bolajon xalq,
Xalqsevardir farzandi.
Har o'g'il-qiz elimning
Dilbandi, arjumandi.

Baxtiyorlar makoni –
O'zod, obod bu gulshan.
Bunda kamol topmoqda
Kelajaging, ey Vatan!

O'ljamurod MAMASHEV,
Surxondaryo viloyati,
Sho'rchi tumanidagi
20-maktabning
til va adabiyot fani o'qituvchisi

KELAJAK ME'MORI

(Aziz va hurmatli ustozim
Zarifa opa Yo'ldoshevaga
bag'ishlayman)

Tinim bilmay mehnat qilar,
Bu jonkuyar muallimim.
Farzandlarga oq yo'l tilar,
Yuragi pok muallimim.

Ustozlarning ustoz,
Yoshlarga yo'lchi yulduz.
Qalbida mehr so'zi
Yumshoq ko'ngil, shirinso'z.

Har niholni asragay,
Boshlab u to'g'ri yo'lga.
Qachon, qayda ko'rmang uni,
Qog'oz, qalami qo'lda.

Bir xona kutubxona
Uzoq o'tirar unda.
Ahli donish, olimlar,
Fikrlari jam bunda.

Kelajakning me'mori,
Ehtirom sizga, ustoz.
Qalbimiz iftixori,
Sizga dildan so'zlay roz.

Mirza Anvar KARIMOV

Umrda bir bor bo'lsa ham raqs tushmagan inson bo'lmasa kerak. Ammo musiqohangiga mos harakat qilishning o'zi hali raqs degani emas ekan. Poytaxtimiznin Sirg'ali tumanida joylashgan 300-maktabdagi «Bahor g'unchalari» raqs dastasining mashg'ulotlariga guvoh bo'lganimda, bunga yana bir bor amin bo'ldin. Yetti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan qizaloqlar har bir harakatni ustozlari Malika opa Alimuhammedova o'rgatganday bajarishga urinishardi.

– Charchamadingizmi, opa, shogirdlar qiynab qo'yishmadimi?

Malika opaning yuziga tabassum yugurdi.
– Nimaga charchay, sevgan kasbim bu. Yigirma yildan ziyod vaqt mobaynida yoshlar bilan shug'ullanib kelaman. Bolalarga qarab zavqlanaman. Ularga raqs sirlarini o'rgatish jarayonida o'zim ham ko'p narsa olaman. Bolajonlardagi beg'uborlikka, samimiylikka havasim keladi. Ularning yutuqlari kuchimga kuch qo'shadi. Shahlo Tosheva, Zebo Ismoilova kabi shogirdlarimning katta sahnada el nazariga tushganlari ko'nglimni



ham o'rin oldik.

– Aksariyat shogirdlaringiz maktab o'quvchilari ekan. Ularning o'qishlarini ham nazorat qilib borasizmi?

– Albatta. Birinchi galda ularning odobiga qarayman. Bahosi pasayib ketgan bo'lsa, to'g'rilamaguncha mashg'ulotlardan chetlatib turaman. Men hammalari zo'r raqqosa bo'lishsin demayman. Sog'lom ulg'ayib, kelgusida o'zlari tanlagan sohaning yaxshi mutaxassisi bo'lib yetishsalar, kifoya.

– Eshitishimizcha, qizaloqlarning liboslarini ham o'zingiz tikar ekansiz.

– Avvalambor, shogirdlarimning otionalariga tashakkur aytmogchiman. Ular bilan doim bamaslahat ish qilamiz. Liboslarni ham o'zim tikishimni ular iltimos qilishadi.

Shuningdek, bizga yaratilgan shart-sharoitlar uchun maktabimiz rahbariyatiga o'z minnatdorchiligimni bildirmoqchiman. Ular san'atni qadrlaydigan insonlar. Shu bois, ishimiz ham rivoj topib bormoqda.

– Malika opa, o'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida turibmiz. Shu munosabat bilan sizni va barcha mehrirdaryo ustozlarni bayram bilan muborakkob etamiz!

Yusuf ABDULLAYEV.
Suratlar muallifniki



tog'day ko'tardi. Umr yo'ldoshim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Uchqun aka Alimuhammedovning ko'mak va maslahatlariga doim suyanaman.

– O'zingiz qachondan raqs bilan shug'ullana boshlagansiz?

– Besh yoshimda onam hozirgi «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi qoshidagi «Yulduz» bolalar raqs dastasiga olib borganlar. O'shandan buyon raqs olamidaman.

– «Bahor g'unchalari»ni ko'pchilik yaxshi bilarkan...

– Biz ayni chog'da ko'plab ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib kelmoqdami. Bir necha bor sovrindorlar safidan

Jizzax tumanidagi «Qulamali» qishloq fuqarolar yig'ini hududida yashovchi Sobirovlar oilasida jismoniy madaniyat oilaviy an'anaga aylantirilgan. Oila boshlig'i – tadbirkor Yo'ldosh Sobirov, uning turmush o'rtog'i – sport ustasi, oliy toifali pedagog Ozoda Azizova hamda uch nafar farzandlari jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanib kelishyapti. Ozoda opa Jizzax tumanidagi «Dilnoza» nomli 13-maktabgacha ta'lim muassasasida bolajonlarga badiiy gimnastika sirlarini o'rgatib kelmoqda.

Oilaning to'ng'ich farzandi Zafar Jizzax Olimpiya zaxiralari kolleji qoshidagi taekvando to'garagi a'zosi. U shu yil o'zi yaxshi ko'rgan sport turi bo'yicha tashkil etilgan respublika chempionatida faxrli o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi. Kenjasi Zarifa bog'cha tarbiyalanuvchisi, Maftuna esa tumandagi 10-umumta'lim maktabining 6-«A» sinfida o'qiydi. Opa-singillar olti yoshligidan sportni doimiy hamrohga aylantirganliklari uchun 2011-yilning may oyida «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur» shiori ostida o'tkazilgan viloyat miqyosidagi musobaqalarning

OILANING SOG'LOM TAYANCHI

badiiy gimnastika turi bo'yicha g'oliblar qatoridan joy olishdi.

Sportchi Sobirovlar oilasi 2011-yilda «Otam, onam va men» oilaviy sport musobaqasining viloyat bosqichida ham muvaffaqiyatli qatnashdi. Bu ahil, namunali va sog'lom oilani qishloqdagilar faxr bilan tilga olishadi. Quvonarlisi shundaki, mamlakatimizda ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanadigan oilalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ular qatorida tumanning Alisher Navoiy nomli mahallasida yashovchi Abdumurod Sultonov, Qatortol qishlog'idan Orzuqul Hazratqulov, Gandumtosh qishlog'idan Tirkash Ne'matov kabilarning oilalari ham bor. Ular har yili tuman va viloyat miqyosida o'tkazib kelinayotgan «Otam, onam va men» oilaviy sport musobaqalarida faol qatnashish orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishyapti. Bu esa barkamol avlodni kamol toptirish ishiga salmoqli hissa bo'lyapti.

Abdulla SAIDOV, Jizzax viloyati



Suratda: Ozoda Azizova qizlari bilan.

YAXSHI

Taniqli yozuvchi Abdusaid Ko'chimovning «Saylanma» kitobi «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyatida nashrdan chiqdi. Bu gapni eshitib, xursand bo'ldik.



«Abdusaid Ko'chimov o'sa-yotgan mevali daraxt: ko'rkam, basavlat, shig'il-shig'il mevasi, quyuq soyasi bor daraxt. Bu daraxt baland bo'lib o'sgani sari

KITOBLAR

mevalari barakali, shirin va yirik bo'lib boraverishini tilayman», deya «Saylanma»ga so'zboshi yozgan edi O'zbekiston xalq yozuvchisi, marhum Pirimqul Qodirov. Qalin muqovali kitobni varaqlar ekanmiz, undagi bir-biridan qiziqarli hikoyalar, qissalar va badiialar e'tiborimizni tortadi.

Ayniqsa, «Baland tog'lar ostida», «Oq kabutarlar oroli» qissalari, «Yaxshilik g'olibdir», «Iste'nodning olmos qimalari» kabi badiialari siz aziz o'quvchilarni ham befarq qoldirmasligi shubhasiz.

Ayni bayram arafasida go'zal kitobning chop etilishi ustoz va kitobxonlar uchun munosib sovg'a bo'ldi.

Bayramingiz muborak, aziz ustoz!

BOR

O'qi, qiziq!
ENG YOSH ISTE'DOD EGASI

Giannesning rekordlar kitobiga kiritilgan eng yosh iste'dod egasi kimligini bilasizmi?

Bu Orenburg shahrida tug'ilgan atigi o'n oylik kichkintoy Yaroslav Yasakovdir. Uning chizgan rasmlari Moskvadagi ko'rgazmada namoyish etilganida, tomoshabinlar hayratdan yoqa ushlab qolishdi. Abstrakt kompozitsiyalar muallifi onasining gapiga qaraganda, bolakay hali bir yarim oylik davridayoq belanchagidan shiqildoqli o'yinchoqlarni otib yuboraverar ekan. Shunda bolaga qalam, bo'yoq va mo'yqalam berishibdi. Kichkintoy tinchlanib, foydali ish bilan mashg'ul bo'la boshlabdi.

Ko'rgazma yakunda mitti iqtidor egasi medal bilan taqdirlanib, nomi Giannesning rekordlar kitobiga kiritilgan.

DILOROM tayyorladi



BOSH MUHARRIR:
To'lg'in HAYTIOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Rassom:
Feruz MATYOQUBOV
Navbatchi:
Axtamqul KARIM

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinsosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilibiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeks: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31984
Buyurtma N: J 2774

«TONG YULDUZI» GAZETASIGA OBUNA
BO'LGAN O'QUVCHILAR DIQQATIGA!

Qadrl o'quvchilar! Eshitmadim demanglar, sevimli nashringiz «Tong yulduzi» gazetasiga 2012- yil uchun obuna davom etmoqda.

Gazeta sahifasida yangi «Men «Tong yulduzi» o'qiyman!» rukni tashkil etildi. Siz bu ruknga fikr-mulohazalaringiz, taklif va istaklaringizni yozib yuborishingiz, shuningdek, u orqali qiziqishlaringiz, yutuqlaringizni tengdoshlaringiz bilan o'rtoqlashishingiz mumkin.

Buning uchun bizga sifatli suratingiz hamda obuna bo'lganligingiz haqidagi kvitansiya nusxasini yuborishingiz lozim. Xatjild ustiga «Men «Tong yulduzi» o'qiyman» rukniga, deb yozishni unutmang.

Maktublaringizni intizorlik bilan kutib qolamiz.

TAHRIRIYAT



Fazliddin olgan surat

QOVOQ SOMSA

Bir kosa un, 150 gr. margarin, bir kosa iliq suvga 2 choy qoshiq tuz solib, yumshoqroq xamir qoriladi va 10-15 daqiqa tindirib qo'yiladi.

Xamir tinguncha yarimta qovoqni mayda, to'rtburchak shaklida to'g'rab, ichiga 2 dona to'g'ralgan piyoz qo'shiladi. (Qovoq urug'ini quyoshda quritib olsangiz, u ham foydali.) Tuz, bir chimdim murch solib aralashtiriladi. Agar qovoqning shirasi kamroq

bo'lsa, 1 choy qoshiqda shakar solsangiz ham bo'ladi.

Xamirni biroz qalinroq yoyib, to'rtburchak shaklda kesib oling. Masalliqni xamir ustiga solib, chiroyli qilib tuting. Gaz patnisida 20-25 daqiqada pishirib oling.



ALADI

Tez va oson tayyorlanadigan aladini ikki xil usulda tayyorlash mumkin:

1.) 3 dona tuxumga yarim piyola sut, ozgina tuz, bir chimdim murch, iloji bo'lsa, 1 choy qoshiqda

TIPRATIKAN
DEYDI:

– Toshbaqaning toshi bor,
Menda esa tikanlar.
O'zidan xafa bo'lsin,
Nogoh qo'li tekkanlar.

Juma USMONOV,
Surxondaryo viloyati,
Jarqo'rg'on tumanidagi
22-umumta'lim maktabining
rus tili fani o'qituvchisi

O'zim o'qiyman



KIM AYTOR?

Yomg'ir sharros quydi-yu,
Bir zunda chiqdi quyosh.
Tulki bolaladi deb,
Osmonga boqar G'iyos.
Konfetini yeb qo'yib,
«Tulki yedi-ku», deydi.
Aslida tulki emas,
Akasi ayyor edi.

Bobur UBAYDULLAYEV,
Samarqand viloyati,
Qo'shrabot tumani

Bayram dasturxoniga

«Rolton» upasi, 1 piyola un solinadi.

2.) 3 dona tuxumning sarig'i, 200 gr. smetana, yarimta margarin, 3 piyola un, iste'mol sodasi solinadi.

Yog' surtilgan tovaga 1,5 osh qoshiqdan aladi solib, ikki tarafi o'rtacha olovda qizartirib olinadi.

YOQIMLI ISHTAHA!

NARGIZA tayyorladi



Muallima:

– Bolalar, bugun fe'ni o'rganamiz. «Kuylash» so'zi o'qitilganida gap tuzamiz. Hurmat, masalan, sen kuylayotgan bo'lsang, nima degan bo'larding?

– «Men kuylayapman».
– Juda to'g'ri. Singling kuylayotgan bo'lsa-chi?..
– «Ovozingni o'chir!» – derdim.



Fayzulla ABDULLAYEV tayyorladi

Ushbu sonda O.VOSIXONOV
chizgan rasmlardan
foydalanildi